

Abdullayev U. I.

DSc., professor

Matnazarova M. O'.

“Tarix” kafedrası o‘qituvchisi

Urganch davlat universiteti

Ablullayev@mail.ru

Matnmo@mail.ru

KO‘CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN’ATNING TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

ANNOTATSIYA

Qadimgi davrga oid yozma manbalarda ham ko‘chmanchi chorvadorlarning jangovorlik qobiliyatlarini yuqori baholangan. “Avesto”da berilgan chorvadordor qabilalar – turlar ham o‘zlarining mohir jangchiligi bilan ajralib turgan. Maqolada ko‘chmanchi chorvadorlarning harbiy salohiyati, foydalanilgan qurol-aslahalar, harbiy tayyorgarlik masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: ko‘chmanchi chorvadorlar, harbiy qurol-aslahalar, harbiy salohiyat, jangchilar, merganlar, chavondozlar, harbiy tayyorgarlik.

Абдуллаев У. И.

DSc., профессор

Матназарова М. У.

Преподаватель кафедры “История”

Ургенческий государственный университет

Ablullayev@mail.ru

Matnmo@mail.ru

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И ОСОБЕННОСТИ ВОЕННОГО ИСКУССТВА У КОЧЕВНИКОВ СКОТОВОДСТВ

АННОТАЦИЯ

Боевое мастерство кочевников-скотоводов высоко оценивалось в письменных источниках древности. Скотоводческие племена-типы, приведенные в «Авесте», также отличались умелым боем. В статье рассматривается военный потенциал кочевых скотоводов, используемое оружие и вопросы военной подготовки.

Ключевые слова: кочевники-скотоводы, боевое оружие, военный потенциал, бойцы, снайперы, всадники, военная подготовка.

Abdullayev U. I.

DSc., professor

Matnazarova M. Oʻ.

Teacher of department of “History”

Urgench state university

Abdullayev@mail.ru

Matnmo@mail.ru

STAGES OF DEVELOPMENT AND FEATURES OF THE ART OF MILITARY AMONG CASCAL NOMADS

ABSTRACT

The fighting skills of nomadic pastoralists were highly valued in written sources of antiquity. The cattle breeding tribes cited in the Avesta were also distinguished by their skillful fighting. The article examines the military potential of nomadic pastoralists, the weapons used and issues of military training.

Key words: nomadic herders, military weapons, military potential, fighters, snipers, horsemen, military training.

KIRISH

Koʻchmanchi chorvadorlarning harbiy salohiyati yuqori boʻlgan. Buni ularning yashash sharoiti, turmush tarzi tokazo etgan. Koʻp miqdordagi chorvalarni boqish va himoya qilish uchun ularga kuchli harbiy siyosiy ittifoq zarur boʻlgan. Bu ittifoq oʻzining tezkorligi, chaqqonligi, merganligi, mohir chavondozlari bilan dehqonchilik vohalaridagi jangchilardan ajralib turgan.

Qadimgi davrga oid yozma manbalarda ham koʻchmanchi chorvadorlarning jangovorlik qobiliyatlarini yuqori baholangan. “Avesto”da berilgan chorvadordor qabilalar – turlar ham oʻzlarining mohir jangchiligi bilan ajralib turgan. Chaytasta yonida boʻlgan hal qiluvchi jangda ular eroniylarni – kavilarni magʻlubiyatga uchratgan[1]. Maʼlum bir davrgacha Farangyasʼyan dehqonchilik vohalari ustidan oʻz hukmronligi oʻrnatgan.

Ko'chmanchi chorvadorlar qo'shni davlatlarga bosqinchilik yurishlari qilib turganlar, bu ularning muhim daromat manbaiga aylangan. Ossuriya manbalarida ham saklarning Midiya podsholigi bilan olib borgan janglari va bunda saklarning, hatto ayol sak jangchilarining mahorati yozib qoldirilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Geradot massagetlarning ittifoqining kuchini ularning birlashuvida deb ko'rsatgan va "hech bir qabila sak va massagetlarning birlashmasiga qarshi qarshi kurashib bilmaydi" deb ko'rsatgan. Rim tarixchisi Pompey Trogning "Filipp tarixi" asarida eng qadimgi davrlardan boshlab, Misr, Ossuriya, Midiya, Eron, Yunoniston, Rimning harbiy yurishlari, jangchilar, jangdagi taktikalari, qurollanishlari kabi masalalar keng yoritilgan. Bu asar bizgacha to'liq yetib kelmagan, uning qisqartirib yozilgan nusxasi saqlanib qolgan. Unda saklarning axamoniylar podsholari Kir II va Doro I ga qarshi olib borgan janglari haqida ma'lumot mavjud. Pompey Trog ham asarni yozishda Geradot ma'lumotidan foydalanib, saklarning mohir jangchi ekanligini aytib o'tgan[2]. Doro I ning saklarga qarshi yurishi yunon-eron urushidan oldin bo'lib o'tgan. Doro I Qora dengizdan shimolda joylashgan saklarga qarshi yurishni mil.avv. 513 yilda boshlagan[2], uning asosiy sababini ko'chmanchilarning bosqinchilik yurishlari va Kir II uchun qasos olish bo'lgan deb ko'rsatgan. Aslida asosiy sabab, deb ko'rsatadi Pompey Trog, Doro I ning shuhratparastligi, bo'ysungan xalqlar orasidagi noroziliklarni to'xtatish, Frakiyani egallab, keyin Yunonistonni egallash bo'lgan. Pompey Trog asarida, Kir II ning saklarga qarshi yurishida Bosfor bo'g'ozi tarafidan kirib borgan va mag'lubiyatga uchragan, Doro I esa, boshqa tomondan borishni rejalashtirganligi, ya'ni g'arb tomondan Dunay tomondan kirib borganligi yozilgan. 700 ming askari bilan Kichik Osiyo orqali Frakiyani egalladi. Doro I Dunay daryosidan sollardan ko'prik yasab, Dunay va Dnestr daryolari oralig'idagi keng cho'l hududga chiqqan. Strabon bu hududni Getlar cho'li deb atagan. Kir II va Doro I ning kechib o'tgan "Araks" daryosi ko'pchilik tadqiqotchilar Amudaryoning Uzboy irmog'i deb tahlil qiladilar[3]. E.V.Rtveladze Doro I ning kechib o'tgan daryosi Kelif Uzboy deb ko'rsatadi va bu arxeologik

manbalar asosida asoslagan[4]. Uzboy tarixiga e'tibor bersak, mil. avv. VII asr boshlaridan Sariqamish deltasida suv ko'p bo'lgan[5]. Yozma manbalarda qayd qilinishicha, shu davrlarda Uzboydan Kaspiy dengiziga kemalar qatnagan[6]. Uzboyga suvning doimiy quyishi mil.avv. I ming yillikning boshlaridan to'xtagan. Amudaryo Orol deltasiga quyila boshlagan.

Yunonlar Dunay daryosidan Qora dengiz, Kavkaz, Kaspiy dengizidan boshlab Sirdaryo bo'ylarigacha yashagan barcha xalqlarni umumiy nom bilan skiflar deb atashgan. Dunay va Qora dengizdan shimolda yashagan qabilalarni Geradot yovvoyi va shavqatsiz deb ko'rsatgan. Boshqa yozuvchilar esa, ularni jangchi, mohir chavondozi, mergan deb ta'riflagan.

Ko'chmanchi chorvadorlar qo'shining asosiy qismi otliqlardan iborat bo'lgan. Ular dehqonchilik vohalariga bosqinchilik yurishlarini tezlik bilan amalga oshirganlar. Kichik bir guruh shiddat bilan ostirib kelib, xududni vayron qilib, talon – taroj etib, yana shunday tezlikda orqaga qaytib ketganlar. Dehqonchilik vohalarida iste'qomat qiluvchi aholi esa, bunday qo'qqisdan bo'ladigan hujumlardan o'zini saqlash uchun mustahqam mudofaali qal'a-shaharlarni bunyod etishgan. Mudofaa tizimini, harbiy qurollarni doimo takomillashtirib borganlar.

Bosqinchilik yurishlari yoki saklarning o'zlarini himoya qilish jarayonlarida turli xiyalalar ishlatilganligi yozma manbalarda saqlanib qolgan. Doro I saklar yeriga kirib borgach, saklar ular bilan to'qnashuvdan qochib, o'ziga xos taktikani qo'llashgan. Doro I qo'shinining yon tomonidan va orqasidan hujum qilib tinkasini quritishga harakat qilganlar. Yo'ldagi quduqlarni ko'mib ketishgan. Saklar cho'lning ichkari qismiga kirib borish jarayonida qishloq-ovullarni vayron qilib, kimsasiz qoldirmaganlar, bu bilan axamoniylar qo'shinlarini yanada cho'lning ichkarisiga olib borishni rejalashtirganlar[2]. Doro I qo'shini skiflarni ta'qib qilib, holdan toyishini va toliqishini kutishgan. Saklar uch guruhga bo'linib, cho'l ichkarisiga chekinishgan. Doro I saklarning asosiy kuchlari qaerda ekanligini bilmagan, askarlari toliqqan, ayniqsa oziq – ovqat tanqisligi sezilgan. Doro I shundan keyin Dunay hududlariga chekingan. Shu paytda saklar uning Dunay bo'ylariga borishiga qarshilik qilib, har tomondan qurshab olib, kuchli xamla qila

boshlaganlar. Doro I saklarni chalgʻitib, Dunay boʻyiga yetib kelgan va daryoni kechib oʻtishgan ulgurgan. Birinchi yurishida Doro I koʻchmanchi qabilalarga qarshi 70 kun kurashgan. Bu davrda 80 ming askaridan ajralgan[2].

Pompey Trog oʻz asarida nima sababdan Doro I ning yengilish sabablarini koʻrsatgan. Uning asarida koʻrsatishicha, Doro I saklarning mamlakatlarini bilmasdan turib jang boshlaganligi, joylarini yaxshi oʻrganmaganligi, ehtiyotkorlik choralari koʻrmaganligi, oziq-ovqat masalalari yetarli hal qilmaganligi va saklarning chalgʻituvchi xatti – harakatlarini inobatga olmaganligi deb koʻrsatadi. Doro I ning saklarga qarshi yurishi haqida Polien asarida Shiroq haqida afsona keltiriladi. Ham ikkala jihatda ham Doro I choʻl ichkarisiga kirib borgan va magʻlubiyatga uchrab orqaga qaytgan, katta talofot koʻrganligini koʻrishimiz mumkin. Kir II va Doro I ning saklarga xujumini tahlil qiladigan boʻlsak, jang qilishda ikkala tomon ham harbiy xiyalardan foydalanganligi kuzatamiz. Bu esa, saklar ham jang qilishda oʻziga xos taktika va strategiyaga ega boʻlgan degan xulosaga kelamiz.

Geradotning “Tarix” asarida massagetlarning ham otda ham piyoda jang qilish uslublarini bilishi, ularning kamon va nayzada mohir mergan boʻlganliklarini yozib qoldirilgan. Saklarning yarogʻ-aslaha va ot-anjomlari haqida Geradot aniq maʼlumotlarni keltirgan. “Massagetlar skiflarga oʻxshab kiyinadi. Ularning hayot tarzi ham oʻxshaydi. Ular jangda otda ham piyoda ham jang qiladilar. Ularda odatda kamon, nayza va harbiy sakira (bolta) boʻladi. Ularning hamma narsalari oltin va misdan ishlangan. Ularning jang sakirasi, oʻq uchi, nayzaning maʼlum qismi metallardan ishlangan, bosh kiyimi, kamar va boshqa bogʻichlar oltin bilan bezatiladi”[7].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu maʼlumotlar oʻz tasdigʻini topgan. Orolboʻyi hududlarida va janubiy Qozogʻiston hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida temirdan ishlangan oʻq uchlari yoki buyumlar topilmagan. Koʻchmanchi chorvadorlarning mozar-qoʻrgʻonlaridan harbiy boltalar, hanjarlar va bronza oʻqlari juda koʻplab topilgan. Saklarning oʻqlari bargsimon, ikki yoki uch qirrali boʻlgan, xanjar va qilich dastasining boshi yoysimon tarzda

qayirib qo'yilgan. Massagetlar, tadqiqotchilar fikriga ko'ra, bu aynan sak kabilalarining yirik harbiy siyosiy uyushmasidir. Sirdaryoning quyi oqimidan topilgan yodgorliklar esa, temirdan ishlangan buyumlar uchraydi. Chirik Rabotning silindrsimon maqbarasidan chavondozlar kiygan temir sovutning bir parchasi topilgan[8]. Sovutning temir parchalarining qalinligi 2 mm dan ziyod bo'lgan. Plastinalar kvadrat 7x7 sm li hajmda bo'lib, ikkita plastina bir-biriga yopishtirilgan, uchinchi plastinaning osti ochiq qoldirilgan. Zirhning hamma qismlari uch plastina qalinligida bo'lgani aniqlangan. Bunday sovutlarning tasvirlari qadimgi Xorazm hududlaridan suvdonlarda tasvirlari mavjud. S.P.Tolstov bunday sovut jangchining butun gavdasini himoyalagan va u saklarda xorasmiylar tasviri ta'siri natijasida paydo bo'lgan deb ko'rsatadi[8].

Jangga olib chiqilgan otlarga ham himoyalovchi sovut yopilgan. Bu sovut otning bo'ynini, orqasining bir qismini himoya qilgan bo'lsa kerak. Gerodotga ko'ra, massagetlarning otlari ko'krak sovut bilan ham himoyalangan[7].

Ko'chmanchi qabilalarda mil.avv.I ming yillikda uzoqqa otadigan, murakkab tuzilishga ega bo'lgan skiflar kamoni tarqalgan. Bu kamon butun Yevroosiyo bo'ylab ko'chib yurgan sak qabilalari foydalangan. Bu kamon kichik o'lchamda, ya'ni 0,6 metrdan 1 metrgacha bo'lib, tuzilishi murakkab bo'lgan[9]. Paykonlar bronzadan va temirdan ishlagan. Geradot massagetlar temirni bilmagan deb yozgan bo'lsada, quyi Sirdaryo hududidagi arxeologik yodgorliklarda ko'chmanchilarning mozar – qo'rg'onlaridan temirdan ishlangan qurol yarog'lar topilgan. Bu esa, ko'chmanchi qabilalarning temirdan ham foydalanishganligin ko'rsatadi. Shu bilan birga Geradot bu hududdagi ko'chmanchi qabilalar haqida emas, balki Orol-Kaspiy xududlarida ko'chib yurgan saklar haqida bayon qilgan bo'lishi mumkin.

Sak jangchilari yaqindan jang olib borganda qilich, xanjar va pichoqlardan foydalanganlar. Xanjar har bir jangchida bo'lib, u bronzadan ishlangan va belbog'ga ilib qo'yilgan. A.M.Xazanov qilich va xanjarlarning bir necha turlarini ko'rsatadi: dastasining yoysimon ishlanishi va metalsiz ishlangan. Dastasi yoysimon

yakunlangan xanjarlar ko'p tarqalgan. Asosan erkaklar qabrlarida uchraydi. Ularning uzunligi 50-60 sm. atrofida bo'lgan.

Dastasi doirasimon yakunlangan xanjarlar o'rta sarmatlar davrida keng tarqalgan bo'lsa, dastasiga metall ishlatilmagan xanjarlar sarmatlarning so'nggi bosqichiga to'g'ri keladi. Bular faqat erkaklar qabridan topilgan.

Kamon bilan birga jangchilarda suyak va charmdan tayyorlangan sadoq bo'lgan. Massagetlarning o'ng biqinidan pastga qarab kengayib boradigan uzun sadoq qo'yilgan. Yaqindan turib jang qilishda qilich o'rniga jez va temir paykonli nayza ishlatilgan. Saklardan tuzilgan harbiy qismlar qadimgi davlatlarning qo'shinlarida ham xizmat qilgan. Geradot asarida Kserks armiyasi tarkibidagi sakning ittifoqchi sifatida qatnashganligini, Plateya jangida saklarning otliqlari mardlik ko'rsatganligini va ularning qurollari haqida ma'lumotlar mavjud. Diodor Sitsiliyskiy ularni Permopil jangida mardligini yozib qoldirgan. Saklar Marafon jangida xam qatnashganlar.

Knidlik Ktesiyning asarida Kir II bilan bo'lgan jang yozib qoldirilgan[10]. Unda Kir II Baqtriyani egallagach, saklar podshosi Amorgga uning ayoli Sparetra turmush o'rtog'iga yordam berish uchun Kir II ga qarshi kurashish uchun 300 ming erkak va 200 ming ayolni to'plaganligi haqida ma'lumot bor. Bu ham yurtiga bosqinchi bostirib kelsa, ayollar erkaklar bilan teng safda turib kurash olib borganliklarini ko'rsatadi. Kir II ni mag'lubiyatga uchratib, uni asirga olganlar.

XULOSA

Umuman olganda saklar haqida ma'lumot Ksenofotda ham uchraydi. Unda saklar Girkanlarning qo'shnisi sifatida berilgan. Ossuriya davlati ularni o'z hukmronligi ostiga olish uchun ko'p harakat qilgan, ularga ko'p jabr zulm yetkazgan. Shuning uchun ular Girkanlar va Kadusiya bilan birga Kir II ga Ossuriya davlatiga qarshi kurashda yordam berganlar. Saklar 10 ming piyoda va 2 ming otliq qo'shin berishgan. Kir II ning Bobilga tantavor kirishida qatnashganlar. Bobilni egallash munosabati bilan o'tkazilgan katta bayramda ot poygasida qatnashgan yosh sak g'alaba qozonadi. Uning oti Kir II ning a'yonlardan biriga yoqib qoladi. Uni olib sak bilan do'st bo'ladilar. Ksenofontda yana Kir II ning

yoshligida Astiagning sharbatdori bilan janjanlashganligi haqida ma'lumot bor. Dionisiy Perieget Strabon ma'lumotiga asoslanib, Yaksart bo'ylab saklar yashaydilar. Ular dunyodagi eng mohir mergan bo'lganlar, o'qlari xatosiz ketgan deb yozib qoldirgan. Elian ular qochib borayotib ham orqaga o'girilib o'q ota olganlar deb yozib qoldirgan. Kim uylanishni hoxlasa qiz bilan kurashgan. Agar qiz g'olib chiqsa u qizning asiriga aylangan. Qiz mag'lub qilsagina unga uylana olgan. Bunday kurashlar uchun saklar yer ostidagi ibodatxonalariga ketishgan. Rim mualliflari saklar haqida yunonlar tomonidan berilgan ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

IQTIBOSLAR / СНОСКИ / REFERENCES

1. Avesta. Yasht kitobi. M.Ishoqov tarjiması. – Toshkent. 2001. - B.Z.
2. Помпей Трог. Эпидома сочинения Помпея Трога “История Филиппа”. – Санкт-Петербург. 2005.
3. Пьянков И.В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – СПб: Петербургское общество, 2013. -С.100; Кдырниязов М.-Ш, Ягодин В.Н, Мамбетуллаев М.М, Сагдуллаев А.С, Кдырниязов О.-Ш. История цивилизации Хорезма. -Нукус.2017. – С.94.
4. Ртвеладзе Э.В. Великий Индийский путь.- Спб., 2012. -С. 68-72; Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – С.42-44.
5. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. – С. 37; Пьянков И.В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – С. 98.
6. Страбон. XI, VII. 3
7. Герадот. I. 215.
8. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. -С.148.
9. Xodjaniyazov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. -B.97.
10. Григорьев В.В. О скифском народе саках. -СПб. 1873. -С.24-25.